

Djalilova Saodat Yoqub qizi

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi
Tabiatmuzey1876@umail.uz

SHAQILDOQ ILONLAR

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy ommabob maqola keng omma uchun moljallangan bo'lib, unda shaqildoq ilonlarning tashqi tuzilishi, shaqildoq ilanlarning shaqillashining asosi yani ularning muguz sistemasi, ularning ichki tuzilishi, zaxarli tishlari va ular haqidagi qalq orasida keng tarqalgan fikrlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tangachalar, muguz sistemasi, qalqonchalar, tullashi.

Данная научно-популярная статья предназначена для широкой публики и содержит сведения о внешнем строении гремучих змей, основе гремучей погребушки, т. е. их железистой системе, их внутреннем строении, ядовитых зубах, а также общепринятые мнения о них.

Ключевые слова: Монеты, система мугуз, щиты, тулаши.

This popular science article is intended for the general public and contains information about the external structure of rattlesnakes, the basis of the rattlesnake, i.e., their glandular system, their internal structure, poisonous teeth, as well as generally accepted opinions about them.

Key words: Coins, muguz system, shields, tulashi.

Shaqildoq ilonlar — zaharli ilonlar oilasiga mansub. Uzunligi 3,6 m gacha bo'ladi. Boshining 2 yonida (ko'zi bilan burun teshiklari oralig'ida) issiq qonli hayvonlarni masofadan sezadigan 2 ta issiq sezuvchi organi bor. Boshi uchburchak shaklda bo'lib, ustki tomoni yirik qalqonchalar bilan qoplangan. Tangachalari ustida taroqchalar bor. Dumi ostida 2 qator dum osti qalpoqchalari joylashgan. Ayrim Shaqildoq ilonlar dumi uchki qismida shaqildoq bo'ladi. Shaqildoq keyingi qirralari bilan bir-biri ustiga taxlanib turadigan muguz g'iloqlardan iborat. Shaqildoq ilonlar tullagan sayin g'iloqlar soni ortib boradi. 4 urug'i, 120 turi (jumladan, 2 ta haqiqiy Shaqildoq ilonlar) mavjud. Shimoliy va Janubiy Amerika, Osiyoda tarqalgan.

Shaqildoq ilonlar yerda, daraxtda, suv havzalari yaqinida yashaydi. Mayda umurtqali hayvonlar bilan oziqlanadi. Tuxumdan tirik tug'adi. Ayrim turlari terisi va go'shti uchun ovlanadi. Zahari tibbiyotda foydalaniladi. Bir necha turi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan.

Shaqildoq ilon tovush bilan ogohlantirmasdan va halqa bo'lib o'ralmasdan ham hamla qilishi mumkin. Shuning uchun shaqildoq ilondan uzoqroq yurgan maqqul.

Zaxari - ilonlarning qattiq muguzli, kosasimon bo'g'inlar tomonidan chiqariladi. Ular bir-biri bilan erkin bog'langan. Shaqildoq ilon xotirjamligini yo'qotganida, uning dumi tebrana boshlaydi. Tebranihlar sababli bo'g'inlar yoki quyruq uchidagi halqalar bir-biriga uriladi. Natijada keskin shaqillagan tovush hosil bo'ladi. Uni 18 metr uzoqlikdagi masofadan ham eshitish mumkin.

Ushbu ilonimiz yiliga 2 dan 4 martagacha po'st tashlaydi. Shuningdek, yoshi o'tgan sari dum uchidagi halqalar tushib boradi.

Agar hujum qilayotgan shaqildoq ilon uzoq masofani bosib o'tishi mumkin deb o'ylasangiz, unda adashasiz. U qila oladigan maksimal narsa bu — boshini ko'tarishi. Ularning zaharli tishlari esa doim foydalanishga tayyor turadi.

Zaxarli tishlari-Shaqildoq ilonlarning uzun, ichi bo‘sh zaharli tishlari harakatchan va og‘iz yopilganda ichkariga qarab yotadi. Hujum qilmoqchi bo‘lganida og‘zini ochadi, tishlar jangovar o‘rinni egallaydi va hamlaga o‘tadi. Tishlarini o‘ljaga sanchib chaqadi. Chaqish vaqtida zaharli bezlarda to‘plangan zahar tishdagi bo‘shliq orqali oqib kelib, yaraga tushadi. Kobra kabi tishlari qisqa bo‘lgan boshqa ilonlarning chaqishi yashin tezligida bo‘lmagani uchun bu birmuncha vaqt davom etadi va ular xuddi o‘ljani chaynayotgandek tuyuladi. Ushbu chaynashga o‘xshash harakat yordamida zahrini yaraga tushiradi.

Xulosa : Shaqildoq ilon haqiqatan ham qo‘rqinchli ilon. Odamlar u haqda ajoyib tarix yaratishgan, emishki, ilon chaqishdan oldin dumlari bilan shovqin soladi, ayni vaqtda uni unchalik xavfli deb hisoblashmaydi. Afsuski, hamma vaqt ham shunday emas. Shaqildoq ilon shaqillagan payti u rostdan ham qo‘rquvga tushgan bo‘ladi. Bu dumini tez tebranishga majbur etadi va u bizda shaqillayotganday taassurot qoldiradi. Shaqildoq ilonlar xulqini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, u yuz marta hujum qilsa shundan 95 tasida u hech qanday ogohlantirish bermaydi! Aytgancha, boshqa ilonlar singari shaqildoq ilon ham tishlashdan ko‘ra hujum qilishni xush ko‘radi, degan tasavvur ham qahiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Aslida, zaharli ilonlar ham hujum qiladi, ham tishlaydi. Shunday ekan ilonlarni xafsiz deb o‘ylab hayotni xafga qo‘ymaslik zarurligini unutmang

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. uz.wikipedia.org/Shaqildoq_ilonlar
2. sinaps.uz/Shaqildoq_ilon_qanday_qilib_shaqillagan_ovoz_chiqaradi?
3. sinaps.uz/bilasizmi
4. sinaps.uz/Shaqildoq_ilon_hujum_qilishdan_aldin_shaqillaydimi?
5. Ziyouz.uz Shaqildoq ilon
6. uzpedia.uz/Shaqildoq_ilonlar
7. milliycha.uz/shaqildoq-ilonlar-hujum-qilishdan-oldin-shaqillaydimi